

## MAVZU: ISLOM IQTISODIYOTIDA FOIZ TUSHUNCHASI

**Javohir Yoqubjonov Farhodjon o'g'li**

*“Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi” kafedrası*

*“Islom iqtisodiyoti va moliyasi” mutaxassisligi 1-kurs magistranti*

[Javokhir.edupage@gmail.com](mailto:Javokhir.edupage@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada juda ko'p muhokama qilingan Islomiy moliya muassasalarida ribosiz foyda va Islomda foiz tushunchalari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Islom moliyasi, ribo, sherikchilik, mudoraba, mushoraka, ijara

Hozirda butun dunyo bo'ylab shiddat bilan rivojlanib borayotgan Islom moliyasi republikamizda ham odamlar orasida tez tez muhokamaga sabab bo'lmoqda. Bir qarashda katta farq qilmaydigan, Islom moliyasi deganda foizsiz ishlaydigan tashkilotlarni tushunadigan aholining asosiy qismida Islom moliyasi haqida hali to'liq tushuncha shakllanib ulgurmagan. Aholining katta qismi Islom diniga etiqod qilishini hisobga olsa, mamlakatimizda bunday alternativ moliya tizimiga katta ehtiyoj borligi ko'rinadi. “Butun dunyoda islom moliyasiga bo'lgan ehtiyoj ortib boryapti. Xususan, ayni paytda jahonda islom moliyasining jami aktivlari qariyb 4 trillion dollarni tashkil etadi. O'zbekistonda fuqarolarning qariyb 20% diniy sabablarga ko'ra an'anaviy kredit tizimidan foydalanmaydi. Mamlakatda islomiy moliyaning rivojlanishi har yili O'zbekistonga 10 milliard dollargacha jalb etishi mumkin”<sup>1</sup> deydi No'monov B. Izlanishlar shuni ko'rsatadiki O'zbekistonda juda oz miqdordagi odamlar Islom moliyasi haqida to'liq tushunchaga egalari.

2020-yil Imomnazarov J. analitik tadqiqotini olib borgan va tadqiqotida O'zbekiston respublikasida Islom moliyasi istiqbollari keng yoritilgan. Ushbu masalalarni boshqa tadqiqotchilar, O.Ahmadjonov, A.Abdullayev, J.Anvarov va S.Ismoilov maqolalarida ham muhokama qilingan. Sh.Toshpo'latova ham Islomda ribosiz foyda masalalari haqida so'z yuritgan. Qo'lingizdagi ushbu maqola yuqorida sanab o'tilgan ilmiy ishlardagi bazi bir ilmiy, tushunarsiz terminlardan qochib, oddiy hamda tushunarli tilda mavzuni yoritishga harakat qiladi.

Jadal rivojlanib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda foyda olish yo'llari juda ko'p. Lekin ushbu an'anaviy moliya tizimiga hali ham integratsiya qilishni xoxlamaydigan, diniy qarashlari sababli bank xizmatlaridan foydalanmaydigan ko'p sonli aholiga Islomiy moliya tizimini tanishtirish va unga kerakli qonun-qoidalarni joriy qilib berish nafaqat aholiga, balki mamlakatning ham iqtisodiy rivojlanishiga katta hissa qo'shishi kutilyapti. “Islom dunyoning barcha sivilizatsiyalashgan

<sup>1</sup> No'monov B. Tashkent. “Fintex, banklar, riteyl” PLAS– forum 2013.

jamiyatlarida deyarli umumiy bo‘lgan axloqiy me‘yorni ham belgilab bergan. Islomiy moliyaning tuzilishi qarzdand olingan har qanday daromadni (riba) taqiqlash va daromadning qonuniyligi atrofida aylanadi. Ribo - qarzdandan mukofot sifatida olinadigan o‘sisdir.”<sup>2</sup> Riboga yana bir Islom iqtisodiyotida katta olim Hisoblangan Mufti Muhammad Taqi Usmoniy quyidagicha ta‘rif bergan: “Ribo tijorat va moliyaviy munosabatlarda shariat ruxsat bermagan foiz yo ortiqcha daromad undirish, bizning urfda esa sudxo‘rlik degan faoliyatdir”<sup>3</sup>. Ya‘ni vaqt o‘tishi bilan hech qanday mas‘uliyat yoki mehnatsiz bir jinsdagi narsalarning ko‘payishiga ribo deb ataladi. Bundan ko‘rinib turiptiki Islomda foiz bilan riboning farqi bor. Foizni matematik ko‘rsatkich sifatida qabul qilinsa, riboni shariat ta‘qiq qilgan foyda sifatida qabul qilsak bo‘ladi. Qur‘oni Karimda qat‘iy ta‘kidlanganidek ribo nojoiz amal hisoblanib, foyda olayotgan shaxs shariat ruxsat bergan faoliyatlar doirasida yoki biror bir mehnatni amalga oshirishi yokida qandaydir xavf-xatarni bo‘yniga olishi lozim.

Bunda sherikchilik vujudga keladi, ya‘ni qandaydir kutilmagan zarar ko‘rilgan taqdirda, ikki tomon ham zarar ko‘rishi Islomning asosiy shartlaridandir.

Masalan biror bir Islomiy investitsiya tashkilotini olsak, u odamlardan bo‘sh pul mablag‘larini jalb qiladi, lekin ularga ma‘lum muddatda aniq miqdordagi foydani va‘da qilmaydi. Mijoz hamda tashkilot sherikchilik asosida faoliyat olib borishadi, foyda esa dastlab kelishilgandek taqsimlanadi. Islomiy muassasalar hamda an‘anaviy moliya muassasalarini solishtiradigan bo‘lsak, Islom moliya muassasalarida investitsiyalar qayta kredit berishga yo‘naltirilmaydi, pul mablag‘lari aktivlarga asoslangan investitsiyalarga yo‘naltiriladi. An‘anaviy banklarda aholidan jalb qilingan pul mablag‘lar qayta kreditga beriladi, yani qarz yana qayta qarz berishga yo‘naltiriladi. Islom moliya muassasalarida esa jalb qilingan mablag‘lar sherikchilik asosida biznesga tikiladi. Bunday sherikchiliklardan biri mudoraba deb ataladi, bunda mablag‘ egasi robbul mol, ish boshqaruvchi esa mudorib deb ataladi. Mudarabada ochiq va aniqlilik yuqori darajada talab etiladi. Moliyacha va mudarib o‘zaro mablag‘lar, daromadlar, va qo‘llangan ishlar haqida ochiq ma‘lumot almashishi kerak

Yana bir keng tarqalgan tushunchalardan biri bu halol nasiya savdo hisoblanadi. Bunday savdo turi ham odamlar orasida noto‘g‘ri talqin qilinishi ko‘p kuzatiladi. Aksar odamlarning fikricha Islomiy nasiya savdo, yoki bo‘lib to‘lashda asl narxi o‘zgarmasligi kerak, aslida esa narxni belgilash mahsulot egasiga bog‘liq. Bunda to‘lov kechiktirilgan taqdirda ustama haq to‘lanishi shart qilish riboning bir ko‘rinishi hisoblanadi. Ushbu amaliyotda Islomiy lizing, ya‘ni ijaradan foydalansa bo‘ladi, u zamonaviy lizingning Islomiy ko‘rinishi hisoblanadi. Ijarada moliya muassasasi aktiv (masalan, mol-mulk, transport vositasi yoki asbob-uskunalar) sotib oladi va uni muntazam to‘lovlar evaziga mijozga ma‘lum muddatga ijaraga beradi. Mijoz mulk

<sup>2</sup>Ahmadjonov O. Islom moliyasi. Scientific Progress, №3 2022. – p2

<sup>3</sup>Муфтий Мухаммад Тақий Усмоний(таржима). Ислом молиясига кириш. “Азон китоблари” Т.: 2023. – б 5



huquqini boshqa shaxsga o'tkazmagan holda aktivdan foydalanlik uchun ijara to'laydi. Lizing muddati tugagach, aktiv mijozga nominal narxda sotilishi mumkin. Bu mexanizm jismoniy shaxslar va korxonalariga aktivlardan qarz olmasdan foydalanish imkonini beradi va u islomiy tamoyillarga mos keladi, chunki u pulning vaqt qiymatini emas, balki moddiy xizmatni (aktivdan foydalanish) nazarda tutadi.

Bundan tashqari Islomiy sherikchilik turi mavjud bo'lib u mushoraka deb yuritiladi. Musharaka sherikchilik shakli bo'lib, unda ikki yoki undan ortiq tomonlar tadbirkorlik faoliyatiga kapital qo'shadilar. Foyda va zararlar kelishilgan nisbatlar asosida taqsimlanadi. mudorabadan farqli o'laroq, musharakaga aloqador barcha tomonlar biznesni boshqarishda faol ishtirok etadilar.

Hozirda Islom moliyasi o'ziga jalb qilishi mumkin bo'lgan mablag'larni hisobga olgan holda nafaqat musulmon davlatlar, balki dunyoviy mamlakatlar ham Islomiy moliya vositalardan faol foydalanishni boshlab yuborishgan. Islom moliyasida asosiy prinsplardan qilib xulosa o'rnida quyidagilar aytish mumkin:

- aktivlarga asoslanganlik;
- shariat man qilmagan savdo bilan shug'ullanish;
- riboga yo'l qo'ymaslik
- foyda va zararda sherik bo'lish

Ushbu prinsplarga amal qilgan holda faoliyat yuritadigan muassasalarning ko'payishi aholida ham Islom moliyasi haqida umumiy tushunchalarning rivojlanishiga olib keladi.

Qolaversa Islomda halollik va bironing haqqi eng oliy darajada qadrlanadi va bunday qadriyatlar asosida shakllanadigan moliya tizimida odamlarning foyda ko'rishi va kapitalning boshqaruvi muvozanatlanishi osonlashadi. Islom insonlarga tarbiyaviy jihatdan ham ta'sir etadi.

Islom moliyasida yuqorida sanab o'tilgandan tashqari ham bir necha moliyaviy instrumentlar mavjud bo'lib, ulardan eng ko'p qo'llaniladiganlari mudoraba, mushoraka va ijaradir. Bularning umumiy jihati esa ribodan saqlanganligi va zararda ham sherikchilikdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ahmadjonov O. "Islom moliyasi" Scientific Progress, №3 2022. – P 48
2. Imamnazarov J. "Landscaping analysis of Islamic Finance instruments in Uzbekistan" Analytical paper, Tashkent 2020. – P 51
3. Муфтий Муҳаммад Тақий Усманий(таржима). Ислом молиясига кириш. "Азон китоблари" Т.: 2023 б 285
4. <https://kun.uz/uz/news/2023/06/24/islom-moliyasi-ozbekistonga-yiliga-10-mlrd-dollar-gacha-jalb-qilishi-mumkinligi-aytildi>
5. [https://en.wikipedia.org/wiki/Islamic\\_banking\\_and\\_finance](https://en.wikipedia.org/wiki/Islamic_banking_and_finance)